O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMI
QARORI

2024 - yil 25 - may 168-10-212-Q/24 Toshkent tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 24 apreldagi “Toshkent viloyati hududidagi “Toza hudud” DUK foydalanishidagi yer maydonlarini ajratib berish to‘g‘risida”gi 303-10-0-Q/24-sonli qarori haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan “Yer resurslaridan oqilona foydalanish, yer hisobini yuritish hamda kadastr xizmatlari sifatini yaxshilash bo‘yicha kelgusidagi ustuvor vazifalar” to‘g‘risidagi videoselektor yig‘ilishining 41-sonli bayoni 19.1-bandi hamda shu asosda qabul qilingan Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 24 apreldagi **303-10-0-Q/24-sonli qarori** ijrosini ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 10, 25-moddalariga asoslanib **qaror qilaman:**

1. **Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 24 apreldagi “Toshkent viloyati hududidagi “Toza hudud” DUK foydalanishidagi yer maydonlarini ajratib berish to‘g‘risida”gi 303-10-0-Q/24-sonli qaror**i ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Toshkent tumani hududidagi “Toza hudud” DUKga qarashli obyektlar foydalanishidagi yer maydoni ilovaga asosan “Toza hudud” DUKga doimiy foydalanish huquqi bilan ajratib berilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Davlat kadastrlari palatasi tuman bo‘limi (Z.Xaitov) mazkur qarorga muvofiq kadastr hujjatlarini belgilangan tartibda rasmiylashtish vazifasi yuklatilsin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari S.Mirsagatov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **O.Rustamov**